

O'QITUVCHI KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI TA'LIM JARAYONINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Mamarajabova Mastona Shomurod Qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti pedagogika yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Email: mastonamamarajabova004@gmail.com

Tel: +998-88-080-14-17

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'qituvchi kompetensiyasini rivojlantirish orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish masalasi yoritilgan. Unda kompetensiya tushunchasining mazmuni, o'qituvchining pedagogik, metodik, kommunikativ va axborot kompetensiyalarining ta'lim sifati bilan bog'liqligi ilmiy asosda tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida o'qituvchi kompetensiyasining rivojlanishi o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi, faolligi va ijodiy fikrlash qobiliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Shuningdek, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish bo'yicha samarali yondashuvlar va amaliy takliflar keltirilgan. Maqola natijalari o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi hamda ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarni qo'llash uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: O'qituvchi kompetensiyasi, kasbiy rivojlanish, ta'lim samaradorligi, pedagogik kompetensiya, metodik yondashuv, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, innovatsion ta'lim, o'quv jarayoni.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос повышения эффективности образовательного процесса посредством развития компетентности учителя. На научной основе анализируется содержание понятия компетентности, взаимосвязь педагогической, методической, коммуникативной и информационной компетентностей учителя с качеством образования. В ходе исследования установлено, что

развитие компетентности учителя положительно влияет на уровень мастерства, активность и творческое мышление студентов. Также представлены эффективные подходы и практические предложения по повышению профессиональной компетентности учителей. Результаты статьи служат методологической основой для повышения квалификации учителей и использования инновационных подходов в системе образования.

Ключевые слова: *Компетентность учителя, профессиональное развитие, эффективность образования, педагогическая компетентность, методический подход, информационно-коммуникационные технологии, инновационное образование, образовательный процесс.*

Annotation: *This article discusses the issue of improving the effectiveness of the educational process through the development of teacher competence. It analyzes the content of the concept of competence, the relationship between the pedagogical, methodological, communicative and informational competencies of the teacher and the quality of education on a scientific basis. In the course of the research, it was found that the development of teacher competence has a positive effect on the level of mastery, activity and creative thinking of students. Also, effective approaches and practical proposals for improving the professional competence of teachers are presented. The results of the article serve as a methodological basis for the professional development of teachers and the use of innovative approaches in the education system.*

Keywords: *Teacher competence, professional development, educational effectiveness, pedagogical competence, methodological approach, information and communication technologies, innovative education, educational process.*

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimining asosiy maqsadi – zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mustaqil fikrlaydigan, raqobatbardosh shaxsni shakllantirishdan iborat. Bu esa o'z navbatida o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini uzluksiz rivojlantirishni talab etadi. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni (2020-yil 23-sentabr) hamda “Uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish to'g'risida”gi Prezident qarorlarida o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish, ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llay oladigan, ijodkor, innovatsion fikrlovchi mutaxassislar sifatida tayyorlash muhim vazifa sifatida belgilangan.

Kompetensiya – bu faqat bilim emas, balki o'qituvchining o'z faoliyatida bilim, ko'nikma va shaxsiy sifatlarini amaliyotda to'g'ri qo'llay olish qobiliyatidir. Zamonaviy o'qituvchi nafaqat o'z fanini mukammal bilishi, balki o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini boshqara olishi, ularni faol, mustaqil fikrlashga unday olishi bilan ham ajralib turadi. Shu sababli o'qituvchining pedagogik, kommunikativ, axborot, metodik va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, interfaol metodlar va STEAM yondashuvlarning ta'lim jarayoniga kirib kelishi o'qituvchilardan yangicha yondashuvni, o'z ustida muntazam ishlashni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, o'qituvchi kompetensiyasini rivojlantirish – nafaqat o'qituvchining kasbiy mahoratini oshirish, balki ta'lim sifatini, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini ham sezilarli darajada yaxshilashga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

O'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika fanida keng o'rganilayotgan muhim yo'nalishlardan biridir. So'nggi yillarda o'qituvchi faoliyatida kompetensiyaviy yondashuv ta'lim samaradorligini oshirishning asosiy omili sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev o'z nutqlarida ta'lim sifatini oshirishda eng muhim omil — bu o'qituvchining mahorati va kompetensiyasi ekanini ta'kidlab, “O'qituvchi — yangi O'zbekistonni bunyod etuvchi asosiy kuch” deb qayd etgan. Shu boisdan “O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish milliy dasturi” (2022-yil) doirasida pedagoglarning bilim va ko'nikmalarini yangilash, ularni innovatsion faoliyatga tayyorlash choralari belgilangan. Pedagogika sohasida kompetensiya tushunchasiga turli olimlar tomonidan turlicha ta'rif berilgan. Masalan, rus olimi A. K. Markova (2004) kompetensiyani “mutaxassisning o'z kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli bajarishga imkon beruvchi bilim, malaka va shaxsiy sifatlar majmui” deb ta'riflagan. Mahalliy tadqiqotchilardan N. Q. Sattorova, Z. G'. Nishonova va M. Yo'ldoshevalarning ishlarida o'qituvchi kompetensiyasini shakllantirishda uzluksiz kasbiy rivojlanish, refleksiya, va amaliyot bilan nazariya uyg'unligining ahamiyati ta'kidlangan.

Xalqaro miqyosda esa E. Boyatzis (1982), J. Raven (2001), va D. Hymes (1972)larning ishlari kompetensiya konsepsiyasining nazariy asoslarini yaratdi. Ularning fikricha, kompetensiya shaxsning nafaqat bilim va ko'nikmasi, balki maqsadga yo'naltirilgan faoliyatda o'zini namoyon etish qobiliyatidir. UNESCO (2015) va OECD (2019) hisobotlarida ham o'qituvchilarning raqamli, kommunikativ, madaniy va innovatsion kompetensiyalarini rivojlantirish XXI asr ta'limining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Yuqoridagi manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi kompetensiyasini rivojlantirish orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish – zamonaviy ta'lim tizimida ustuvor ilmiy-amaliy yo'nalish hisoblanadi. Shu bois, pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning ijodiy fikrlashini, ijtimoiy faolligini kuchaytirish hamda o'qituvchi shaxsining kasbiy o'sishini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Mazkur tadqiqot ishining metodologik asosini O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020-yil), "Uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Prezident qarorlari hamda UNESCO va OECDning ta'lim sifatini baholashga oid xalqaro me'yoriy hujjatlari tashkil etadi. Tadqiqotda o'qituvchi kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini aniqlash, ta'lim samaradorligiga ta'sirini o'rganish asosiy maqsad qilib belgilandi.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

1. Nazariy tahlil metodi – o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi, uning tarkibiy qismlari, rivojlanish bosqichlari hamda ta'lim samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy manbalar asosida o'rganish uchun;
2. Tizimli yondashuv – o'qituvchi kompetensiyasini pedagogik tizimning ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqish va uni rivojlantirishning kompleks yo'llarini aniqlash uchun;
3. Kuzatish va suhbat metodi – ta'lim jarayonida o'qituvchilarning dars o'tish jarayoni, metodlardan foydalanish darajasi va o'quvchilarga ta'sirini amalda kuzatish uchun;
4. Tahlil va sintez metodi – olingan natijalarni umumlashtirish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni hal etish yo'llarini ishlab chiqish uchun.

Tadqiqotning predmeti – o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish jarayoni. Obyekti – umumta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning kasbiy faoliyati va ularning kompetensiya darajasi. Maqsadi – o'qituvchi kompetensiyasining rivojlanish omillarini aniqlash va ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi samarali metodlarni taklif etishdan iborat. Shuningdek, tadqiqot davomida o'qituvchilarning malaka oshirish tizimidagi ishtiroki, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalari hamda

o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga ta'sirini baholash uchun amaliy tahlil ishlari olib borildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi kompetensiyasining rivojlanish darajasi ta'lim jarayonining sifati va samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kompetent o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini boshqaruvchi, ularni mustaqil fikrlash va ijodkorlikka undovchi shaxsdir. Shu bois, ta'lim tizimida o'qituvchi kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirish, ularni yangi pedagogik texnologiyalar va metodik yondashuvlarga tayyorlash dolzarb masaladir.

O'qituvchi kompetensiyasini rivojlantirish orqali:

- ta'lim jarayonining samaradorligi va sifat ko'rsatkichlari oshadi;
- o'quvchilarning bilimlarni egallash, tahlil qilish va amaliyotda qo'llash ko'nikmalari mustahkamlanadi;
- darslarda interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanish imkoniyati kengayadi;
- o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot, o'zaro hurmat va hamkorlik muhitini shakllantirish osonlashadi.

Takliflar:

- ✓ Har bir o'qituvchi uchun kompetensiyaviy rivojlanish yo'nalishlarini belgilovchi individual reja ishlab chiqish;
- ✓ Malaka oshirish kurslarida nazariy bilimdan ko'ra amaliy mashg'ulotlar ulushini ko'paytirish;
- ✓ Ta'lim muassasalarida o'qituvchilarning innovatsion tajriba almashinuvi uchun "Pedagogik ustaxonalar" tashkil etish;
- ✓ O'qituvchilarning axborot-kommunikatsion kompetensiyasini oshirish uchun raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish.

✓ Umuman olganda, o'qituvchi kompetensiyasini rivojlantirish — ta'lim sifatini yuksaltirishning, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va ijtimoiy faollikni shakllantirishning eng muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boyatzis R. E. The Competent Manager: A Model for Effective Performance. — New York: Wiley, 1982.
2. Karimova V. M. Pedagogik innovatsiyalar va kompetensiyaviy yondashuv. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2023.
3. Markova A. K. Psixologiya professionalnoy kompetentnosti. — Moskva: Znaniye, 2004.
4. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2021.
5. Nishonova Z. G'. Pedagogning kasbiy kompetensiyasi va uni rivojlantirish yo'llari. — Toshkent, 2020.
6. OECD. Education 2030: The Future of Education and Skills. — Paris, 2019.